

**GO'SHT-SUT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH
FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH
ORQALI RIVOJLANTIRISH**

Abdullayev Jasur

QDTU “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada go'sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat subsidiyalari, imtiyozli kreditlash, soliq rag'batlari, institutsional islohotlar hamda infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash choralarning ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sifati va tarmoq samaradorligiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, davlat siyosatini takomillashtirish orqali go'sht-sut sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: go'sht-sut mahsulotlari, davlat qo'llab-quvvatlashi, subsidiya, imtiyozli kreditlar, oziq-ovqat xavfsizligi, tarmoq samaradorligi

Аннотация: В статье анализируется роль и значение механизмов государственной поддержки в развитии отрасли производства мясо-молочной продукции. В исследовании на научной основе раскрывается влияние государственных субсидий, льготного кредитования, налоговых стимулов, институциональных реформ и инфраструктурных мер поддержки на объемы производства, качество продукции и эффективность отрасли. Также разработаны предложения и рекомендации по обеспечению устойчивого развития мясо-молочной промышленности путем совершенствования государственной политики.

Ключевые слова: мясо-молочная продукция, государственная поддержка, субсидии, льготное кредитование, продовольственная безопасность, эффективность отрасли.

Abstract: The article analyzes the role and significance of state support mechanisms in the development of the meat and dairy production sector. The study scientifically examines the impact of government subsidies, preferential lending, tax incentives, institutional reforms, and infrastructural support measures on production volumes, product quality, and overall industry efficiency. In addition, proposals and recommendations are developed to ensure the sustainable development of the meat and dairy industry through the improvement of state policy.

Keywords: meat and dairy products, state support, subsidies, preferential lending, food security, industry efficiency.

Aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash har bir davlatning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda go'sht va sut mahsulotlari alohida ahamiyat kasb etib, ularning yetarli hajmda ishlab chiqarilishi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida go'sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda go'sht-sut sanoatini rivojlantirish masalalari asosan davlatning agrar siyosati, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari va institutsional qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq holda o'rganiladi. Xalqaro tajribada davlat tomonidan subsidiya va imtiyozlar berilishi ishlab chiqarish risklarini kamaytirish, fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirishi qayd etiladi. Shuningdek, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimlarining rivojlanishi davlat siyosati bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi.

Davlat tomonidan go'sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlash quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Birinchi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va grantlar chorvachilik subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda aylanma mablag'lar bilan ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchi, soliq va bojxona imtiyozlari. Asbob-uskunalar va texnologiyalar importida bojxona to'lovlarining kamaytirilishi ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Uchinchi, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash. Sovutish omborlari, logistika markazlari, qayta ishlash korxonalarini va veterinariya xizmatlarining rivojlanishi mahsulot sifatini saqlash va yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi, institutsional va huquqiy mexanizmlar. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar, dasturlar va normativ-huquqiy hujjatlar tarmoqning barqaror rivojlanishi uchun muhim asos yaratadi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligi ishlab chiqarish hajmining oshishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va bandlik darajasining ko'tarilishi orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, qayta ishlash ulushining ortishi natijasida qo'shimcha qiymat yaratiladi va eksport salohiyati kuchayadi. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishiga va iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

Amaldagi qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga qaramasdan, ayrim hududlarda moliyaviy resurslarga yetarli darajada kirish imkoniyati cheklanganligi, kadrlar salohiyatining pastligi va texnologik eskirish muammolari saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat siyosatini yanada manzilli va natijador qilish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish hamda xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

ilmiy –amaliy anjuman

Xulosa qilib aytganda, go'sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tarmoqning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish va agrar sohaning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish mumkin.